MARKAZIY OSIYODA ISLOM DINI G‘OYALARI RADIKALLASHUVINING IJTIMOIY-SIYOSIY TENDENSIYALARI

Zafar Xayrullayev
O‘zbekiston Milliy universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida islom dini g‘oyalarining radikallashuvi siyosiy madaniyatning yuqori emasligi va mafkuraviy inqiroz natijasida vujudga kelganligi, shuningdek, zamonaviy davrda radikal g‘oyalar YouTube videolari, Telegram kanallari, Instagram sahifalari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyani qamrab olayotganligi va bu yo‘l bilan aholini manipulyatsiya va agitatsiya qilish, yo‘ldan adarshtirishga bo‘lgan urunishlar ko‘payib borayotganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, radikallizm, siyosiy madaniyat, mafkura*

Abstract. This article analyzes that the radicalization of Islamic ideas in the Central Asian region arose as a result of a low level of political culture and an ideological crisis, as well as the fact that in the modern era, radical ideas are reaching a wide audience through YouTube videos, Telegram channels, Instagram pages, and other social networks, thereby increasing attempts to manipulate and agitate the population and lead them astray.

Keywords: *Central Asia, radicalism, political culture, ideology*

Kirish

Markaziy Osiyo – o‘zining ko‘p asrlik islomiy merosi, o‘ta nozik geosiyosiy joylashuvi va postsovet ijtimoiy-institutsional zaifliklari bilan ajralib turuvchi hudud sifatida, diniy radikalizm xavfi ostida bo‘lgan eng murakkab makonlardan biridir. Mintaqada radikallashuv – bu nafaqat diniy mutaassiblik yoki e’tiqod ekstremizmi, balki bu ko‘proq ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, siyosiy madaniyatning yuqori darajada

emasligi, mafkuraviy bo‘shliq va global geosiyosiy bosimlar bilan bog‘liq kompleks hodisadir. Ushbu fenomenni faqat “tashqi tahdid” yoki “yolg‘on e’tiqodlar” nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas, balki uni siyosiy modernizatsiya jarayonlari, fuqarolik identiteti inqirozi, mafkuraviy pluralizm va kommunikativ ong doirasida har tomonlama tahlil etish talab etiladi.

Radikallikning mintaqadagi ildizlari avvalo Sovet Ittifoqi davrida sun’iy ravishda e’tiqodsizlashtirish siyosati olib borilganligiga borib taqaladi. Bu siyosat natijasida diniy-ma’naviy ierarxiyalar, diniy-ta’limiy institutlar va urf-odatlar faoliyatini yo‘qotgan, ammo ularning o‘rnini bosuvchi zamonaviy mafkuraviy asoslar shakllantirilmagan edi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa 1990-yillar boshida diniy bo‘shliq mavjud bo‘lib, unga turli xil diniy oqimlar, jumladan ekstremistik tendensiyalarga ega bo‘lgan tashqi kuchlar o‘z mafkuralarini singdira boshladilar. Natijada, siyosiy identiteti zaif, iqtisodiy jihatdan beqaror va institutsional jihatdan himoyasiz mintaqalarda bu g‘oyalar o‘zining mafkuraviy tayanchiga ega bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi mamlakatlarda diniy ekstremistik tashkilotlar – “Hizb ut-Tahrir”, “IMU”, “IshID” va boshqa transmilliy guruhlar faoliyat olib borgan, bu esa mintaqaviy barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘dirgan.

Siyosiy madaniyatning pastligi, ya’ni fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish madaniyati, qonunlarni yaxshi bilmasligi va siyosiy savodxonlik darajasining pastligi bu tahdidlarning ichki jamiyatga singishiga xizmat qildi. Siyosiy madaniyat nafaqat davlat organlarining harakati bilan, balki jamiyatdagi ijtimoiy ong, kommunikativ raqobat, ijtimoiy institutlar faoliyati bilan shakllanadi. Ammo mintaqada hali-hanuzgacha bu institutlar sust ishlagani bois, odamlar o‘z e’tiqodlarini ifoda etish uchun ekstremistik shakllarni tanlashga moyil bo‘lib qolmoqdalar. Ayniqsa, yoshlar orasida iqtisodiy imkoniyatlar yetishmasligi, ishsizlik, migratsiya oqibatidagi begonalashuv, identitet inqirozi diniy radikalizmga nisbatan qiziqishni kuchaytirgan.

Asosiy qism

Mintaqada mafkuraviy kurash ayni paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yangi shakllarga o‘tdi. Diniy radikalizm endilikda faqat jismoniy tahdid emas, balki axborot urushi, gibrid tahdid, virtual makondagi mafkuraviy tajovuz shaklida namoyon bo‘lmoqda. Radikal g‘oyalar YouTube videolari, Telegram kanallari, Instagram sahifalari orqali keng auditoriyani qamrab olmoqda. Bu yerda diniy matnlar kontekstdan uzib talqin qilinadi, islomning klassik, maqosidga asoslangan mantiqiy-ma’rifiy metodologiyasi emas, balki literalistik, hissiy, ekspressiv yondashuvlar ustuvorlik qiladi. Bunday yondashuvlar esa siyosiy beqarorlik, huquqiy nihilizm va ekstremistik harakatlar uchun mafkuraviy asos yaratadi.

Bunday holatda davlatlarning diniy siyosatga nisbatan pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo‘yicha ilg‘or tajribalarda ko‘rsatilganki, radikalizmga qarshi eng samarali kurash vositasi – bu huquqiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyati va diniy-ma’naviy pluralizmga asoslangan mafkuraviy immunitetdir. Diniy erkinlik va ijtimoiy xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni topgan davlatlar ekstremistik g‘oyalarning singib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ammo diniy erkinlik nomidan mafkuraviy beqarorlikni tarqatishga ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekistonning bugungi pozitsiyasi – diniy bag‘rikenglikni e’tirof etgan holda, davlatning dunyoviylik printsipiga qat’iy amal qilishi ijobiy va samarali ko‘rinadi.

Islom dini g‘oyalarining radikallashuvi Markaziy Osiyo mintaqasida murakkab ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va kommunikativ jarayonlar majmuasining natijasidir. Bu hodisaga faqat diniy yoki xavfsizlik nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Aksincha, siyosiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolik identitetini mustahkamlash, mafkuraviy pluralizmni qo‘llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta’minlash orqali bu tahdidlarga qarshi kompleks yondashuv shakllantirish mumkin. Diniy radikalizmga qarshi kurash bu – jamiyatning o‘zini intellektual va ma’naviy jihatdan himoya qila

olishi bilan o‘lchanadi. Shu ma’noda, Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotning garovi – siyosiy madaniyat va mafkuraviy ongning uyg‘un rivojlanishidadir.

Markaziy Osiyo mintaqasida islom dini g‘oyalarining radikallashuvi zamonaviy siyosiy madaniyat va mafkura sohalarida chuqur murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonni tahlil qilishda eng avvalo siyosiy madaniyatdagi transformatik o‘zgarishlar va mafkuraviy bo‘shliqlarning shakllanishi asosiy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi inqirozidan keyingi davrda mafkuraviy inertlik, ideologik yo‘nalishlardagi parokandalik, diniy bilimlardagi sayozlik va siyosiy institutsiyalarning zaifligi radikal g‘oyalarning ildiz otishiga qulay zamin yaratdi[14].

Siyosiy madaniyat inqirozi natijasida shakllangan mafkuraviy vakuum turli tashqi manbalardan kirib kelgan salafiy, jihodiy va takfiriy yo‘nalishlarning faol tarqalishiga olib keldi. Bu holat mafkuraviy ixtiloflarni keskinlashtirgan holda, diniy g‘oyalarni siyosiy instrumentga aylantirdi. Tahlilchilar ta’kidlaganidek, radikallik bugungi kunda “siyosiy madaniyatdagi ideologik va mafkuraviy shizmaning” [16] mahsulidir. Yoshlar orasida diniy savodsizlikning yuqoriligi, fuqarolik madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi, axborot manbalarining ko‘pligi va nazoratsizligi salbiy mafkuraviy oqimlarning jadal kirib kelishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, radikal guruhlar tomonidan Qur’oni karim oyatlari selektiv tarzda, kontekstdan ajratilgan holda talqin qilinishi diniy anglanishning deformatsiyasiga sabab bo‘lmoqda[13]. Bunday jarayonda radikallik nafaqat diniy g‘oya sifatida, balki siyosiy va mafkuraviy kuchga aylana boshlaydi. Shu sababli, radikalizmni faqatgina ekstremizm yoki terrorizm doirasida emas, balki uni “siyosiy madaniyatning inqirozli holatiga javob” [17] sifatida ko‘rish lozim.

Axborot-kommunikatsiya vositalari, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali radikalizmning “tarmoqlashtirilgan mafkurasi” shakllanmoqda. M. Kastelsning nazariyasiga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy radikallik “kontrvlast” ya’ni, mavjud siyosiy tizimga qarshi tashkil etilgan tarmoqchilik vositasi sifatida namoyon

bo‘lmoqda[11]. Bu esa mafkuraviy tajovuzlarni faqat huquqiy choralar bilan emas, balki ma’rifiy, mafkuraviy va siyosiy madaniy yondashuvlar orqali bartaraf etish zarurligini anglatadi.

Radikallikning boshqa bir sababi bu siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklardir. Ijtimoiy himoyaning sustligi, korrupsiya, tanish-bilishchilik, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishi radikal g‘oyalarning omma orasida o‘ziga xos norozilik mafkurasiga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holatni ijtimoiy-pedagogik va mafkuraviy inqiroz kontekstida ham tahlil qilish mumkin[15]. Radikalizmga qarshi kurashda eng avvalo siyosiy madaniyatni qayta tiklash, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, dinshunoslik savodxonligini oshirish va ma’rifiy mafkura ishlab chiqish zarur. Zero, “faqat repressiv choralar emas, balki ideologik immunitetni shakllantirish orqali jamiyatda barqaror mafkuraviy iqlim yaratiladi”[18].

Islom dini g‘oyalarining Markaziy Osiyoda radikallashuvi nafaqat diniy hodisa, balki chuqur siyosiy-madaniy va mafkuraviy mohiyatga ega ijtimoiy-siyosiy tendensiyadir. Bu jarayonni tahlil etish uchun avvalo siyosiy madaniyat tushunchasining o‘zi – ya’ni fuqarolarning siyosiy jarayonlarga ongli ishtirok etish darajasi, siyosiy institutlarga nisbatan munosabatlari va siyosiy qadriyatlar tizimi – bilan bog‘liq konseptual doiradan yondashish talab qilinadi. Aynan siyosiy madaniyatning zaifligi, murosasizlikka asoslangan siyosiy tafakkur va yot mafkuralar uchun ochiq ideologik makon diniy radikalizmning shakllanishi va kengayishi uchun ijtimoiy zamin hozirlab beradi. Trebin ta’kidlaganidek, “radikalizm – bu g‘oyaviy va siyosiy jarayonlar uchun murosasizlik va maksimalistik metodlarga tayanuvchi mafkuraviy harakat bo‘lib, u ijtimoiy voqelikni ildizidan o‘zgartirishga intiladi” [20]. Aynan shunday radikalizm turi bugungi Markaziy Osiyo jamiyatida, xususan diniy g‘oyalar orqali siyosiy maqsadlar ko‘zlanayotgan sharoitda mavjud tuzumga nisbatan yo‘naltirilgan ehtirosli va ba’zan zo‘ravon norozilik shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotchi Qo‘ysinovaning fikricha, diniy radikallik “erkinlik va adolat kabi qadriyatlarni subyektiv tarzda talqin qiluvchi, bu orqali diniy e’tiqoddan mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga asoslangan ekstremistik model”ni tashkil qiladi[9]. Bu model mafkuraviy struktura sifatida radikal harakatlarning legitim asos sifatida diniy dalillarni suiiste’mol qilishiga imkon yaratadi. Ayni vaqtda bu hodisa madaniy identitet va mafkuraviy bo‘shliqlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Komilov radikallik sabablarini mikrodarajadan boshlab makrostruktural kontekstlargacha tahlil qilarkan, u “radikallashuv faqat bitta sabab bilan bog‘liq emas, balki kompleks omillar, xususan ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik, madaniy begonalashuv, siyosiy inklyuzivlikning pastligi va diniy savodsizlik kabi tizimli muammolar bilan bevosita bog‘liq” [1] ekanligini qayd etadi.

Radikallik, ayniqsa yoshlar ongida shakllanayotgani Podolny tomonidan asoslanadi. U bu haqida shunday yozadi: “Yoshlar radikalizmga nisbatan eng zaif qatlamdir, chunki ular siyosiy ijtimoiylashuv bosqichida bo‘lib, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini topishga harakat qilmoqda. Bunda ular ko‘pincha norozilikni radikal harakatlar orqali bildirishga urinadi” [19]. Bu fikr yoshlar ongida radikalizmni konstruktiv islohot emas, balki e’tiroz, norozilik va “kuchli ko‘rinish” sifatida idrok etilayotganini anglatadi. Diniy radikalizmga sabab bo‘layotgan mafkuraviy muhitni Dottuev quyidagicha ta’riflaydi: “Radikal diniy mafkura yoshlar ongiga asosiy g‘oya sifatida sun’iy singdiriladi. Bunga esa global axborot makonida radikalizmga ijobiy tus berilishi yordam beradi” [12]. Ya’ni, axborot urushi doirasida diniy radikal g‘oyalar ham “erkinlik”, “shon-sharaf”, “qarshilik” kabi tushunchalar bilan bezalib, jamiyat uchun jozibali formatga aylantirilmoqda. Ammo bu nuqtai nazarlar ichida ta’sirli tanqidiy yondashuv ham mavjud. Yana Qo‘ysinovaning ta’kidlashicha, “radikal mafkura o‘zida g‘oyaning chinligi emas, balki subyektiv ehtiroslar va noroziliklarni qonuniylashtirish qurolini aks ettiradi” [9]. Demak, diniy radikalizm – diniy ong emas,

balki mafkuraviy vosita, siyosiy qarama-qarshiliklarni legallashtiruvchi diskursdir. Bu holatni siyosiy madaniyat yetishmovchiligi fonida baholash zarur.

Ilmiy-ijodiy yondashuvda e’tiborga molik jihat shundaki, diniy radikalizmni faqat tashqi xavf yoki “g‘oyaviy buzg‘unchilik” sifatida talqin qilish uni chuqur ijtimoiy sabablaridan uzib qo‘yadi. Podolny bu borada shunday yozadi: “Radikallashuvning oldini olish uchun, avvalo uning psixologik va ijtimoiy ildizlarini anglab yetish zarur. Har bir radikal harakat ortida inkor etilgan identitet, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan shaxs turgan bo‘ladi” [19]. Tanqidiy jihatdan qaraganda, ko‘plab hukumat strategiyalari radikalizmga faqat xavfsizlik yondashuvida qaraydi. Biroq bu yondashuv yetarli emas. Mafkuraviy muvozanatni tiklash, siyosiy madaniyatni oshirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va inklyuziv ijtimoiy tizim yaratish – radikallashuvga barqaror mafkuraviy va siyosiy immunitetni shakllantirishda muhim vositadir. Aks holda, repressiv strategiyalar o‘z-o‘zini kuchaytiruvchi radikal aylanma hosil qiladi. Shunday ekan, diniy radikalizmni siyosiy madaniyat va mafkura kontekstida tahlil qilish nafaqat “g‘oyaviy buzg‘unchilik”ning sabablarini ochib beradi, balki mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumning zaif joylarini ko‘rsatadi. Radikallashuv faqat chet ellardan kirib kelgan tahdid emas, balki ichki siyosiy, mafkuraviy va madaniy bo‘shliqlarning mahsuli ekanini unutmaslik lozim.

O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimi Konstitutsiyaviy asosda dunyoviylik tamoyiliga tayangan bo‘lib, u nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning zaruriy kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyoviylik konsepsiyasi, o‘z navbatida, din va davlat o‘rtasidagi masofani saqlashni nazarda tutadi. Bu masofa – jamiyatda diniy pluralizmni ta’minlash, dindorlar va e’tiqodsizlar, turli konfessiyalar vakillarining huquqiy tengligini kafolatlashning eng samarali mexanizmidir. Mazkur yondashuv O‘zbekistonning tarixiy, ijtimoiy va madaniy ko‘p qirraliligini e’tiborga olgan holda shakllangan bo‘lib, diniy e’tiqod erkinligini tan olgan holda, diniy institutlarning siyosiy maydonga aralashuviga qarshi qat’iy pozitsiyani ifodalaydi[2].

Davlat dinning ichki institutlari – ibodatlar, diniy marosimlar, aqida va e’tiqodga oid sharhlar – bilan shug‘ullanmasligi zarur. Bu doira, o‘z navbatida, Injil, Tavrot, Qur’on kabi muqaddas matnlarning sharhi, diniy urf-odatlar, namoz, ro‘za, marosimlar singari masalalarni o‘z ichiga oladi. Diniy tashkilotlar ushbu sohada mustaqil faoliyat yuritadi, davlat esa faqat qonuniylikni nazorat qiladi. Shu bilan birga, agar diniy tashkilotlar faoliyati konstitutsiyaviy huquqlar, jamoat xavfsizligi yoki ma’muriy tartiblarni buzishga olib keladigan holatlarni yuzaga keltirsa, davlat aralashuvi mutlaq qonuniy va zarur bo‘ladi[7]. Masalan, ta’lim tizimidagi maktab formasi talablari yoki umumiy ijtimoiy normalar e’tiqoddan qat’i nazar, hamma uchun teng qo‘llaniladi, bu yerda hal qiluvchi mezon shariat yoki diniy talablar emas, balki dunyoviy-huquqiy tamoyillardir[8].

So‘nggi yillarda global miqyosda diniy ekstremizm va diniy asosli siyosiy harakatlarning kuchayishi, dinning siyosiy vositaga aylantirilishi bilan tavsiflanmoqda. Bu holat, avvalo, diniy normalarning davlat qonunlaridan ustun qo‘yilishi, ba’zi guruhlarning diniy aqidalarni siyosiy manifestatsiyaga aylantirishga urinishi orqali namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, din siyosatdan, siyosat esa dindan ajratilishi zarur. Zero, dinning siyosiylashuvi – diniy partiyalar, guruhlar va harakatlarning shakllanishi orqali ichki barqarorlik va millatlararo totuvlikka raxna solishi mumkin[10]. Ayrim holatlarda esa, diniy mafkura xalqaro miqyosda geopolitik vosita sifatida ishlatilishi, u orqali boshqa davlatlar suverenitetiga bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazishga urinishlar kuzatilmoqda. Dinning bunday instrumentallashuvi diniy erkinliklar prinsipiga zid bo‘lishi bilan birga, uni siyosiy kurash vositasiga aylantiradi[6].

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tanlangan dunyoviylik konsepsiyasi davlat va din o‘rtasidagi chegarani belgilash orqali ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va huquqiy tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu konsepsiya nafaqat ichki siyosiy ehtiyoj, balki xalqaro xavfsizlik va madaniy bag‘rikenglik siyosatining zaruriy

elementi sifatida qaralishi lozim. Dinning siyosiylashuviga qarshi immunitetni shakllantirish, diniy ekstremistik g‘oyalarning siyosiy maydonga kirib kelishini to‘sish, faqat davlatning emas, balki jamiyatning ham umumiy burchidir. Aynan shu nuqtai nazardan O‘zbekiston davlatchiligining dunyoviy modelga asoslanishi, ijtimoiy hamjihatlik va konstitutsiyaviy barqarorlikni ta’minlovchi poydevor sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Islomiy g‘oyalarning radikallashuvi Markaziy Osiyo siyosiy madaniyati va mafkura maydonida murakkab sotsiopolitik jarayon sifatida shakllanmoqda. Bu hodisaning ildizlari nafaqat diniy tafakkur ichidagi tafovutlardan, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, siyosiy institutlarning shakllanish darajasi va tashqi geosiyosiy bosimlardan ham oziqlanadi. Shunday ekan, radikallashuvni faqat diniy fenomen sifatida emas, balki siyosiy madaniyatning ichki zaifliklari va mafkuraviy bo‘shliqlari natijasi sifatida talqin etish to‘g‘riroqdir. Masalan, M. L. Ranstorpning ta’kidlashicha, “radikallashuv jarayoni har doim siyosiy kontekstda ro‘y beradi, diniy matnlar faqat vosita vazifasini bajaradi” [4]. Bu fikr mintaqadagi vaziyatga mos keladi, chunki diniy oqimlarning siyosiy maydonga kirib kelishi ularning nazariy aqidalaridan ko‘ra siyosiy bo‘shliqlar bilan bog‘liq.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, diniy erkinlikning kengayishi bilan birga “soxta umidlar” fenomeni ham yuzaga keldi. Ya’ni, barcha diniy oqimlarga erkinlik berilishi demokratik qadriyat sifatida talqin qilindi, ammo bu jarayonning nazorat qilinmagan oqibatlari – “buzg‘unchi” diniy oqimlarning jamiyatga kirib kelishiga zamin yaratdi. Bunday oqimlar ko‘pincha xorijiy moliyaviy va mafkuraviy yordamga tayangan holda mahalliy aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini o‘z tarafdorlariga aylantirdi. O. Roy bu holatni “transmilliy ummat g‘oyasining siyosiy modernizatsiyasi” deb ta’riflaydi va uning radikallik bilan bog‘liq oqibatlarini tahlil qiladi[5]. Demak, diniy radikallashuvning asosiy omili diniy matnlardan emas, balki

ularni o‘qish va talqin qilish uchun shakllanmagan siyosiy va madaniy muhitdan kelib chiqadi.

Shuningdek, taqiqlash va cheklash masalasi ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun murakkab paradoksdir. Bir tomondan, mutlaq taqiqlash siyosati fundamentalistik davlatlarga xos bo‘lib, demokratik davlatlarda qabul qilinmaydi; ikkinchi tomondan, “buzg‘unchi mafkuralar” tarqalishini nazorat qilmaslik jamiyat barqarorligiga xavf soladi. D. Kepel bu borada shunday yozadi: “Taqiqlash o‘zi radikallashuvni yo‘q qilmaydi, balki uni yashirin shaklga o‘tkazishi mumkin, biroq ochiq erkinlik ham mafkuraviy bo‘shliqni radikallik bilan to‘ldiradi”[3]. O‘zbekiston tajribasi ham shu nuqtada muvozanat izlashga qaratilgan: psevdosalafiylik kabi oqimlar tashkilot sifatida taqiqlanmagan, ammo ularning g‘oyaviy tarqalishi keskin cheklanmoqda. Bu yondashuvning maqsadi – fuqarolarning diniy e’tiqodini emas, balki radikallashuv darajasini asosiy tahdid sifatida ko‘rishdir.

Radikallashuvni kamaytirishda davlatning axborot-tushuntirish va reabilitatsiya siyosati alohida o‘rin tutadi. Reabilitatsiya markazlarining faoliyati, dinshunos va imom-xatiblarning keng jalb qilinishi, yoshlarni mafkuraviy immunitet bilan ta’minlash – bularning barchasi siyosiy madaniyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, bu faoliyat ko‘pincha “reaktiv” tusda qolmoqda, ya’ni mavjud tahdid paydo bo‘lgach ishga solinadi, profilaktika choralari esa yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa mafkuraviy bo‘shliqlarning qayta ishlab chiqarilishiga olib keladi.

Xulosa

Umuman, Markaziy Osiyoda radikallashuvning ijtimoiy-siyosiy tendensiyalari siyosiy madaniyatning zaif tomonlari, mafkuraviy pluralizmning nazorat qilinmagan oqibatlari va global geosiyosiy ta’sirlarning o‘zaro kesishgan nuqtasida shakllanmoqda. Shunday ekan, davlat siyosati nafaqat diniy oqimlarni tartibga solish, balki jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, siyosiy tafakkurni kengaytirish

va diniy hamda dunyoviy bilimlarni integratsiyalash orqali radikalizmga qarshi barqaror model yaratishga qaratilishi lozim. Chunki radikallashuvga qarshi kurashning asosiy mezoni – diniy mansublik emas, balki shaxsning siyosiy madaniyatdagi konstruktiv yoki destruktiv pozitsiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov S.K. Radikallashuv global xavfsizlikka tahdid sifatida: ildizlari va ko‘rinishlari. // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 4, Issue 11. – B. 115–121.
2. Karimov I.A. (1997). Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O‘zbekiston, – B. 43–45.
3. Kepel, G. Jihad: The Trail of Political Islam. I.B. Tauris, 2006. – 389 b. (s. 57).
4. Ranstorp, M. Understanding Violent Radicalisation. Routledge, 2016. – 210 b. (s. 94).
5. Roy, O. Globalised Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press, 2004. – 320 b. (s. 118).
6. Sattorova M. (2020). “Shariat va zamonaviy huquq: qarama-qarshilikmi?”. Falsafa va huquq, №2, – B. 106–108.
7. Sultonov Z. (2020). “Dunyoviylik va e’tiqod erkinligi: zamonaviy yondashuvlar”. Yuridik fanlar, №3, – B. 87.
8. Qodirov R. (2021). “Huquqiy davlat va diniy tolerantlik”. Huquq va jamiyat, №1, – B. 69.
9. Qo‘ysinova F.O. Radikallashuv xavfli ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida. // ALFRAGANUS xalqaro ilmiy jurnali. – 2023. – №6. – B. 63; 60–65.
10. Yusupov F. (2022). Diniy ekstremizm va xavfsizlik tahdidlari. T.: Ilm Ziyo, – B. 51.
11. Данилов С.А., Иванов А.В. (2017). Радикализм и социальный порядок

общества: социально-философская перспектива. Тамбов: Грамота. №8 (82). – С. 71–73.

12. Доттуев Т.И., Кодзоков А.Х., Бештоев Р.О. Радикализация молодежи: причины и тенденции. // Образование и право. – 2021. – № 6. – С.
13. Калыной И.И., Попов Д.А. (2014). Идеи и социальные истоки современного исламского радикализма и экстремизма. Вестник МВД РФ, №9. - С. 43-47.
14. Кашкаров А.А., Штехбарт А.Л. (2017). К вопросу об общественной опасности исламского радикализма в современном светском обществе. Крымский юридический институт АГПРФ. – С. 1–8.
15. Корж И. (2013). Радикализм общественных отношений – угроза безопасности государства. XXI век, №2(27). – С. 104–108.
16. Кулешова Н.С. (2018). Исламский радикализм является фактором дестабилизации политической ситуации в мире. Вестник МГОУ. Сер.: История и политические науки, № 3. - С. 153-160.
17. Лопушанский И.Н. (2014). Радикализм и экстремизм – основа терроризма и террора. Вестник МВД РФ, №9. – С. 47–49.
18. Мартыненко А.В. (2011). Феномен исламского радикализма (историографический аспект проблемы). Гуманитарная наука, №4(16). – С. 14–15.
19. Подольный Н.А. Природа молодежного радикализма. // Наука. Юридические науки. – 2021. – № 6. – С. 28–35.
20. Требин М.П. Радикализм в современном мире: социально-политический анализ. // Вестник Национального юридического университета им. Ярослава Мудрого. – 2019. – № 4 (43). - Б. 118-132.